

**BOLANING HAR TAMONLAMA RIVOJLANISHIDA MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI VA OTA-ONA HAMKORLIGI****Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi***Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim fakulteti 22/1 guruh talabasi**Ilmiy rahbar: Imamova Nilufar Uktamovna**Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim fakulteti tyutori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotida ota-ona, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorlikda bola ta'lim - tarbiyasini uzviylikini ta'minlashning o'rni va beqiyosligi haqida fikrlar bildirildi.*

**Kalit so'zlar:** *oila, mahalla, ibratli xonadon, ta'lim-tarbiya, hamkorlik, uzviylik, barkamol, komil inson, insoniy fazilatlar, aqliy faollik.*

Har bir yosh davrida bola turli faoliyat bosqichlarini bosib o'tadi va hayotiy tajribasi ortib boradi. 6-7 yoshli bolada o'yin faoliyati ustunlik qilib, ta'lim faoliyatiga oid motivlar, ehtiyoj va qiziqishlar tarkib topa boshlaydi. Bolaning maktab ta'limiga tayyorligi tushunchasi ularning jismoniy, psixologik, aqliy, axloqiy tayyorligi bilan belgilanadi. Xabarimiz borki, ayrim hududlarida ko'p bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnamaydi. Bolaning asosiy vaqti oila muhitida bo'lganligi uchun ota-onaning bolani maktabga tayyorlashdagi roli beqiyosdir. Har bir ota-onaning vazifasi farzandining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, tabiiy uy sharoiti muhitidagi voqea-hodisalar jarayonida farzandiga o'qishning aqliy mehnat ekanligini, diqqatini, irodasini ishga solishi kerakligini, bundan tashqari o'z xulqini idora etishi, xatti-harakati uchun javob berishi lozimligini anglatishi zarur. Oiladagi sog'lom muhit odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandlarning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliqi oiladagi farzandlarning munosabatlari to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Bolalarni tarbiyalashni to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining ko'yilishiga kompleks yondishishga, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila va maxallaning to'liq o'zaro hamkorligi va harakatining birligiga bog'liq.

Mahalla, maktabgacha talim tashkiloti va oilaning o'zaro aloqasi bola tarbiyasi masalasida tajriba almashinib turish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bola maktab talimiga tayyor bo'lishi uchun undan jismonan sog'lomlik, nutq va tafakkurning malum doirada rivojlanganligi, shaxsida manaviy va axloqiy xususiyatlarning yetarli shakllanganligi, maktab hayoti haqida tegishli tasavvurlarga ega bo'lishi talab etiladi. Mahalla, ota-onalar bilan maktabgacha talim tashkiloti xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish birgalikda yillik reja tuzishdan boshlanadi. Bu reja sinchiklab o'ylab tuzilishi kerak. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir - birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda ota-onalarga yordam berish maqsadida ular uchun mahallalar qoshida pedagoglarni jalb etgan holda qisqa muddatli to'garaklar, maslahatxona tashkil etish lozim. Ota-onalar bilan ishlashning eng samarali shakllaridan yana biri ta'limtarbiya jarayonida ota-onalar ishtirokini ta'minlashdir. Bolalarning maktab talimiga sifatli tayyorlash ishining butun murakkabligi, ko'p qirraliligini anglash uchun ota-onalar maktabgacha talim tashkilotida

bo'lib turishlari kerak. Mahalla faollarining, ota-onalarning, tajribali pedagoglarning bola tarbiyasi soxasidagi ilg'or tajribalarini almashinishga bag'ishlangan kechalarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlatimiz kelajagini belgilovchi yosh avlod tarbiyasi oldida turgan vazifalardan biri har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash ishini tubdan yaxshilashdir. O'zbek oilasi tarixi uzoq-uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hatto «Avesto»da ham bola tarbiyasida oilaning roli, tutgan o'rni, ulug'vor vazifalari haqida saboq beriladi. Shuningdek, muqaddas kitoblari fozilu fuzalolarimiz, donishmandlarimiz o'gitlarida oila jipsligi sofligi, uning jamiyatdagi mavqei ravshan ko'rsatilgan. Bugungi kunda har bir oilaning jamiyatda tutgan o'rni, hayot mazmuni, milliy qadriyatlarni o'rganishi inson ma'naviyatiga xizmat qiladi. Bunga erishish uchun avvalambor, mahallada va oilada bola tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, unda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, chuqur bilim va yuksak mas'uliyat talab etadi. Ma'lumki, insoniy munosabatlar oiladan, oila muhitidan boshlanadi. Har bir bola oiladagi munosabatlarni, vaziyatlarni ota-ona, oiladagi oila a'zolariga taqlid qilish orqali fikrlaydi, xulosa chiqaradi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, oila o'ziga –o'zi tarbiyachilik vazifasini bajaradi. Shunday ekan, ushbu omil milliy qadriyat sifatida ajdodlarimizdan qolgan hissiy tajriba sifatida hayotiy tajribalarning ijobiy ko'rinishi bo'lib, milliy mentalitetimizning o'ziga xos bir ko'rinishi ekanligini unutmashimiz zarur. Inson hayoti, jumladan o'sib ulg'ayib kelayotgan navqiron avlod hayoti va faoliyatining asosiy davri mahallada va oilada o'tadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla hamkorligi tashkil etilgani bola birinchi sinfga borganida yaqqol seziladi. Bolalarni maktabga tayyorgarligi deganda, avvalambor, ruhiy tayyorlik tushuniladi: bola maktabga borishni istayapti, unga mavqeyining o'zgarishi yoqyapti, o'yin faoliyati asta-sekin o'qishga almashmoqda, bola diqqatni jamlashga va qoidalarga amal qilishga qodir, bolada maktabga moslashishga yordam beradigan qator qobiliyatlar shakllanib bo'lishi kerak. Odatda yetti yoshgacha barcha bolalar bu ko'nikmalarni egallab olishadi, agar bolalar ba'zi narsalarni bilmasa, maqsadli yo'naltirilgan mashg'ulotlar yordamida ularni o'rgatish mumkin. Milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz ichida bola odobi, xulki, axloki, tarbiyasiga doir urf-odatlar ayniksa muhim o'ringa ega. Oilada bolalarni yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalashni otaona va keng jamoatchilikning namunasi ibratini va xalq og'zaki ijodi manbalarni, milliy udumlarimizdan tarbiya vositasi sifatida foydalanish, yoshlarni ma'naviy boy, ahloqan pok, e'tiqodi butun, tafakkuri teran, dunyokarashi keng insonlarni tarbiyalashda muxim samara beradi.

Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafakat otaonaning, balki butun jamiyatimizning katta boyligidir. Insonni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash bashariyatning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Milliy tarbiya tizimida oila ma'naviyati, undagi otaonaning o'rniga ajdodlarimiz alohida e'tibor qaratganlar. Bu borada Amir Temur o'ziga xos alohida mislsiz o'rin egalladi. Amir Temur hukmronligi yillarida Samarqand, Xirotda shaharlarida madaniyat, ilmi-fan rivojlandi.

Sohibkiron odob-ahloq, imon, e'tikod, ta'lim-tarbiya sohasida yuksakka erishgan siymolardan hisoblanadi. Buning isboti Amir Temur yaratgan odob-axlok oid o'gitlari, pand-nasixatlari, hamda, soxibqiron haqidagi yozilgan tarixi manbalarni, asarlarni o'qib chiqish yetarli. Jaxonga mashxur «Temur tuzuklari» asarida Amir Temurning ibratli, xayotiy tajribalari, qimmatbaho nasixatlari, fikrlarning aniq, teranligi, ta'sirchanligi yaqqol ko'zga tashlanadi va

insonni xushyorlikka chaqiradi. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda ham maxala, oila va maktabgacha ta'lim hamkorligi katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi hamkorlik ham bolalarning uzluksiz ta'lim olishini garovidir.

«Beshikdan to qabrgacha ilm izla» degan maqol asosida katta gap bor. Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan mahalla va mahalla orqali oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardik. O'zbek oilasi tarixi uzoq-uzoq o'tmishga borib taqaladi. Hatto «Avesto»da ham bola tarbiyasida jamiyat va oilaning roli, tutgan o'rni, ulug'vor vazifalari haqida saboq beriladi. Shuningdek, muqaddas kitoblarda fozilu fuzalolarimiz, donishmandlarimiz o'gitlarida oila jipsligi sofligi, uning jamiyatdagi mavqei ravshan ko'rsatilgan. Bugungi kunda har bir oilaning jamiyatda tutgan o'rni, hayot mazmuni, milliy qadriyatlarni o'rganishi inson ma'naviyatiga xizmat qiladi. Bunga erishish uchun avvalambor, oilada bola tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, unda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, chuqur bilim va yuksak mas'uliyat talab etadi. Inson hayoti, jumladan o'sib ulg'ayib kelayotgan navqiron avlod hayoti va faoliyatining asosiy davri oilada o'tadi. Demak, oila jamiyatning dastlabki bo'g'ini ekan, bolalar avvalo tarbiya sabog'ini uyda, bobo – buvi va ota – onasidan oladi. Shunga ko'ra aqliy, jismonan va ma'naviy jihatdan kamol topadi, dunyoqarashi shakllanadi. Vatanga, el-yurtga hurmat kabi odamiylik belgilari dastlab oilada yuzaga keladi.

Oiladagi to'g'ri tarbiya dastlab ota-onaning namunali, ularning o'zaro iliq va samimiy munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Oiladagi ota-ona va boshqa oila a'zolarining badiiy asarlarni o'qishi, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni ko'rish hamda ularga oilaviy munosabatlarni bildirishi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Ma'lumki, insoniy munosabatlarni bolalar dastlab oilada, keyinchalik mahallada, maktabgacha ta'lim tashkilotida va so'ngra maktabda o'rganadi. Oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkiloti - bolalar tarbiyasining muhim o'choqlari sanaladi. Tarbiyaning mazmuni eng yaxshi o'zbek oilalarida amal qilgan va amal qilayotgan tarbiyaning mazmuni hamda davlat va jamiyat tomonidan oila - maktabgacha ta'limdan kelib chiqadi.

Bunday dolzarb murakkab ish maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila, mahalla amalga oshiradigan yagona, yaxlit tarbiya tizimi mavjud bo'lgandagina ijobiy natija beradi. Bu tasodifiy ham emas, albatta. Chunki oila bilan jamiyat bir-biridan ajralmasdir. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tarbiyalashning butun tizimi bolalarni xar xil hayotiy hodisalardan ajratgan holda ularda yaxshi va yomonni farq qilishni, yomonga qarshi tura olish qobiliyatini tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Isabayeva, M., & Ne'matov, A. (2022). Ways of Preparing Teachers for Professional Activity Based on Innovative Educational Technologies. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(5), 321-322.

2. Абдуназаров, Л., Неъматов, А. (2022). Биология ўқитишда эвристик таълим технологиясидан фойдаланиш имкониятлари. Янги Ўзбекистон тараққиёти даврида, 1(1), 488-491.
3. Неъматов, А. Х. (2021). Инглиз ва ўзбек тилларида қўлланилувчи метафораларнинг услубий хусусиятлари. Илм-фан муаммолари магистрантлар талқинида, 1(1). 175-178.
4. Бекмухаммедов, А., Неъматов, А. (2017). Линия ва нав аро рецепроқк дурагайларда чигит устидаги тукланишни назорат қилувчи генларни ўзгарувчанлиги. Марказий Фарғонада Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, 1(1), 92-93.
5. Бекмухаммедов, А., Халбекова, Х., Неъматов, А. (2017). Изменчивость генов контролирующих морфологические признаки под действием радиации или получения направленной мутации путём подбора исходных генотипов. Тенденции та перспективи розвитку науки и освіти в умовах глобалізації, 17(31), 7-11.
6. Юлдашева, Д. Х. (2019). Урбанизация жараёни ва шаҳарларни ривожланиши мавзусини ўқитишда минтақавий тофовутлар масаласини ёритилиши. ВИСШАЯ ШКОЛА, 19(10), 135-137.
7. Абдуназарова, Х., Юлдашева, Д. Х. (2020). Ўзбекистонда туризм соҳасининг ривожланиши ва унинг ҳуқуқий асослари. Фарғона вадийси географлари уюшмасининг илмий амалий семинари, 1(1), 95-97.
8. Юлдашева, Д. Х. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАРИХИЙ ШАҲАРЛАРНИНГ ЎРНИ. ИНТЕРНАУКА, 21(150), 155-160.
9. Nararov, N. Y., Yuldasheva, D. X. (2022). Ecological Features of Biogas Production. Ilm Sarchashmalari, 22(4), 124-126.
10. Tudiyeva, O. M., & Ibragimova, D. A. (2019). USE OF INNOVATIVE TEACHING METHODS TO IMPROVE “REPRODUCTIVE HEALTH”. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(5), 294-299.
11. Mamirovna, T. O., Komiljonovich, P. M., & Rasuljonovich, M. R. (2020). NEPATOPROTECTIVE POTENTIAL OF POLYPHENOLS IN CCL4-INDUCED NEPATIC DAMAGE. *European science review*, (11-12), 3-8.
12. ТУРДИЕВА, О. М., ТОЖИБОЕВА, С. Х., & ТУРСУНОВА, Ш. А. (2015). О ПРЕДОТВРАЩЕНИИ УСТАЛОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ. In *БУДУЩЕЕ НАУКИ-2015* (pp. 422-426).
13. ТУРДИЕВА, О. М. (2015). ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ. In *БУДУЩЕЕ НАУКИ-2015* (pp. 419-422).
14. Turdiyeva, O. M., Qahhorova, F. K., Xusayinov, D. B., & Abdurahmonova, A. (2022). Causes of Computer Addiction among Young People. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(5), 312-316.
15. Mamirovna, T. O., & Komilovich, P. M. (2022). Effects of Gossitan and Getasan on Lipid Peroxidation and Antioxidant Enzyme Activity in Rat Liver Homogenate in Toxic

Hepatitis. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(5), 293-300.

16. Turdiyeva, O. M. M. (2022). TOKSIK GEPATIT SHAROITIDA QONDAGI AYRIM FIZIOLOGIK KO 'RSATKICHLARGA DIGIDROKVERTSETINNING TA'SIRI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(4), 85-88.